



ABU ALI IBN SINONING “TAYR” QISSASIDA BADDIY TIMSOLLAR O‘RNI

Ruzmurodova Rayhona

*Berdaq nomidagi Qoraqalpog‘ davlat universiteti Felologiya va tillarni o‘qitish: O‘zbek tili Yo‘nalishi
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Maqolada “Tayr” qissasi mumtoz adabiyotda o‘zlari uchun adolatli va komil Podshohni izlab mashaqqatli yo‘lga chiqqan qushlar motivi haqida atroflicha fikr yuritiladi. Qushlar o‘zlariga bo‘lgan ishonchi, bardoshi va maqsadi yo‘lida qaysi manzilgacha boraolishi sinaladi. “Tayr” qissasining mohiyati insonni do‘sti ham dushmani ham aslida o‘zi ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: Ekspozitsiya, motiv, obraz, timsol, tugun, tarixiy haqiqat, badiiy to‘qima, qushnoma, qomusiy olim.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the motif in the story "Tayr", where birds embark on a difficult journey in search of a just and perfect king. Throughout the journey, each bird is tested on its self-confidence, perseverance, and dedication to its goal. The essence of "Tayr" reveals a profound philosophical message: a person's greatest friend and enemy is, in fact, their own self.

Keywords: exposition, motif, character, symbol, climax, historical truth, artistic fiction, bird-epic, encyclopedic scholar.

Аннотация: В статье даётся подробный анализ мотива в рассказе «Тайр», где птицы отправляются в трудный путь в поисках справедливого и совершенного царя. В ходе путешествия проверяются вера птиц в себя, их выдержка и стремление к цели. Суть рассказа «Тайр» отражает глубокую философскую мысль: друг и враг человека — это, по сути, он сам.

Ключевые слова: экспозиция, мотив, образ, символ, кульминация, историческая правда, художественный вымысел, птицесказание, энциклопедист.

KIRISH

O‘rta asirning buyuk allomasi va faylasufi Ibn Sino (Avetsenna) o‘zining ko‘plab ilmiy va falsafiy asarlari bilan nafaqat sharq, balki butun dunyo ilm-faniga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Uning badiiy merosidagi muhim asarlardan biri bo‘lgan “tayr” qissasi inson ruhiyati, ma‘naviy o‘lish va hayotdagi haqiqiy maqsadlarni izlash mavzusiga bag‘ishlangan. Ushbu maqolada “Tayr” qissasining asosiy motivlari, timsollari hamda insonning o‘zini anglash yo‘lida qanday xulosalar chiqarilishi tahlil qilinadi.

Asosiy qism

“Tayr” qissasi mumtoz adabiyotda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Unda qushlar obrazlari orqali inson ruhining turli tomonlari ifodalanadi. Qushlar — bu inson qalbining xohish-istaklari, umidlari va orzulari timsoli. Ularning adolatli va komil podshohni izlab uzoq va qiyin yo‘lga chiqishi insonning o‘zligini topish, ma‘naviy kamolotga erishish uchun qilgan mehnatidir.

Qissaning boshlanishida insonni o‘ylantiradigan jumla bilan boshlanadi. Bu jumla o‘qiguvchini ham o‘ylantiradi. Qissa qahramoni yolg‘iz ekanligi va uning dardiga dardman bir



kishi topilishini o'ylab, ozroq ko'ngli g'imgin bo'lishini his etamiz. Qissa quydagicha boshlanadi:

“Dilimdagi qayg'ularimning bir ozini eshitadigan birodar topilarmikan?! U mehribonlik qilib, hasratimni tinglasa, og'irimni yengillashtirgan, dardimga malham topgan bo'lardi...” [1]

Albatta, inson ko'p narsalarga qiyinchilikka bardosh berishi mumkin, lekin inson yolg'iz yasholmaydi. Yonida turadigan dardkash, suhbatdoshi bo'lishini istaydi. Yaqin insonnini esa do'st deb ataydi. Ammo har doim yoningda turolmagan inson do'st bo'lolmaydi. Qissada do'st haqida shunday deyilgan:

“Agar do'stlik savdo-sotiqqa o'xshab, ehtiyojga qarab axtarilsa, zarurat tug'ilmagani chog'da do'stni nazarga ilmay, tashlab ketilsa, bu qanday do'stlik bo'ldi endi!

Do'sting boshingga mushkul tushgandagina holingdan xabar olgani kelib, boshqa vaqtda begonaday yursa, zarurat tug'ilgandagina eslab, boshqa mahalda sira eslamasa, o'ylab ko'r, shu ham do'stlik bo'ladimi, axir!

Axir, Xudoning O'zi yaqinlashtirgan mehr-shafqatli do'stlar ham bor-ku! Ular haqiqatga mulohaza bilan qaraydilar; dillarida shak-shubha g'ubori bo'lmaydi. Ularning hammasi bir-biriga xolisanlilloh do'st, ahil, ularni shunday oliyjanob do'stlik birlashtirgan.” [2]

Yuqorida keltirilgan jumlar qahramonga balki shu bilan birga o'qiguvchiga ham uning hayotiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasi quymaydi. Qissadagi har bir so'z haqiqat va ma'noga ega. Qahramon o'z bilmi va ko'rganlari boshidan o'tkizgan voqealari asosida xulosa chiqaradi va boshqalarni ham shu yaxshilikka va to'g'ri yo'lga boshlaydi:

“Ey, birodarlar! Haqiqatni ochinglar, to'g'ri yo'ldan yuringlar. Bir-biringizdan bilim o'rganib, kamol topishingiz uchun dil pardasini ochib tashlanglar.

Ey, birodarlar! Kirpilar boshini ichiga tortgani kabi siz ham boshingizni ichingizga torting. Botiningizni yuzaga chiqaring, zohiringizni esa, ichingizga oling. Xudo haqqi, botiningiz ravshan ko'rinib turibdiyu, lekin zohiringiz yashirin (1).

Ey, birodarlar! Ilonga o'xshab po'st tashlab, qurtlar singari sudralib yuringlar. Qurolidumida bo'lgan chayondek hushyor bo'lib turinglar, chunki shayton odamni orqadan kelib alday olmasa, hech bir (kimsa) alday olmaydi.

Ajal zahrini yutinglar, yashayajaksiz, o'limni sevinglar, tirik bo'lajaksiz (2). Qo'nadigan uya tutmay uchib yuringlar, chunki qushlarning ovlanadigan joylari uyalaridir. Agar qanot yo'qligi uchishingizga mone'lik qilsa, qanotli bo'linglar, maqsadga yetasiz. Eng katta fazilat uchishga mohir bo'lishdir.

Qizitilgan toshlarni yutadigan tuyaqush bo'linglar, katta-kichik suyaklarni yutib yuboradigan ilondek, olov ichida dadil yuradigan samandardek, kunduzi yorug'likka chiqmaydigan ko'rshapalakdek bo'linglar. Parrandalarning eng yaxshisi ko'rshapalaklardir.

Ey, birodarlar! Odamlarning botiri mushkulotdan qo'rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rqog'idir.

Birodarlar! Farishta yomonlik bilan mashg'ul bo'lsa yoki hayvonlar xunuk ish qilsa, bunga ajablanish kerak emas. Balki inson vujudi aql bilan munavvar bo'la turib, shahvatga berilsayu, insonligini yo'qotib, vijdondan kechsa, bunga ajablanish kerak bo'ladi. Qasamyod qilib aytamanki, odamning farishtasi shahvatni daf qilishda shak-shubhasiz sobit qadamdir.



Uning oyoqlari jimoga yurmaydi. Agar kishidagi insoniylik, yomonlik ohanrabosi bo'lmish shahvatni qaytarishga ojizlik qilsa, unday odam hayvondan ham past turadi.[3]

Qissadagi har bir qushning yo'l davomida duch keladigan sinovlari, o'ziga bo'lgan ishonchi, sabr-bardosh va iroda kuchi orqali inson hayotidagi murakkab sinovlar aks etadi. Aynan shu jarayonda inson o'zining haqiqiy do'sti va dushmanini aniqlaydi — bu o'zining ichki dunyosi, xohish-irotalari ekanligi ko'rsatiladi.

Ovchini hiylasiga ishonib tuzoqqa tushgan qushlar o'z qismatlaridan nolib o'tirishganda najot qidirishadi. Boshqa qushlar galasi ular galasi ularni ozod qiladilar ammo, ularning ham oyog'ida kishanlar bilan uchayotganini ko'radi. Qushlar ochidan qochganlarida bir qushning "Bo'ldi charchadik ozroq dam olaylik"-degan so'zidan barcha qushlar vodiydagi bir tog'ga qo'nishadi. U yerdagi ajoyibotlarga mahv bo'lishib uzoq vaqt qolib ketishadi.

G'flatda qolgan qushlar osmondagi juda go'zal qushlar galasini ko'rishadi va ulardan yordam so'rashadi. Ular (go'zal qushlar) bir tog' ortida podshoh borligi u hammaga yordam va to'g'ri yo'l ko'rsatishini aytad. Barcha qushlar ergashadi lekin ko'plari oxirigacha boraolishmaydilar.

Bundan tashqari, "Tayr" qissasi tarixiy haqiqatlar va badiiy to'qima asosida yaratilgan bo'lib, unda falsafiy g'oyalar o'ziga xos timsollar orqali yetkaziladi. Qushnoma janriga mansub bu asar o'zining o'zgacha uslubi bilan o'quvchini chuqur o'ylashga undaydi.

Xulosa

Ibn Sinoning "Tayr" qissasi insonni o'zini anglash va ma'naviy o'sishga undovchi badiiy merosdir. Unda inson qalbining murakkabligi, uning ichki kurashlari va haqiqiy do'sti hamda dushmani o'zining ichida ekanligi ifodalanadi. Bu asar o'rta asr falsafasi va mumtoz adabiyotining noyob namunasi bo'lib, hozirgi zamonda ham ma'naviy-axloqiy jihatdan katta ahamiyatga ega.

FODALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Ali Ibn Sino. Tibbiy risolalar. – Toshkent: Fan, 1987.
2. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018.
3. Alimardonova A. Nafsnı anglatuvchi tushunchalar va timsollar. Educational Research in Universal Sciences. 2023.
4. N.Rahmonov Mumtoz adabiyot namunalari 1-jild -Toshkent 2007.